

“Open bank” aksiyadorlik jamiyati
Kuzatuv kengashining
2025-yil 21 - oktabr dagi
21-10/1 -sonli yig'ilish bayonnomasiga
33-ilova

ICHKI VALYUTA BOZORIDA ETIKA KODEKSI

KIRISH

Ichki valyuta bozorida Etika kodeksi (bundan buyon matnda Kodeks deb yuritiladi) "Open bank" aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda Bank deb yuritiladi)ning xulq-atvori, uning barqaror faoliyat ko'rsatishiga asos bo'lib, barcha manfaatdor tomonlarning qonuniy huquq va manfaatlarini hisobga olgan holda halol va xolis faoliyat yuritishlari uchun shakllangan umumaxloq normalari jamlanmasi hisoblanadi.

Bank tomonidan Kodeks qoidalariga rioya qilinishi yuqori axloqiy (etika) standartlarga asoslangan bozor faoliyati uchun muhim hisoblanadi.

Kodeks Xalqaro hisob-kitoblar banki (Bank for International Settlements) tomonidan qabul qilingan "Valyuta bozorining global kodeksi" hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi tavsiyalari asosida ishlab chiqildi.

Ushbu Kodeks qonunchilik hujjatlarida to'g'ridan-to'g'ri tartibga solinmagan masalalar bo'yicha tavsiyaviy xarakterga ega.

GLOSSARIY

Mazkur Kodeksda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Ichki valyuta bozori – valyuta birjasida, O'zbekiston Respublikasi banklari o'rtasida hamda bevosita mijozlar bilan amalga oshiriladigan chet el valyutasini hamda valyutaviy hosilaviy (derivativ) instrumentlarni sotib olish va sotish;

Bozor ishtirokchilari – ichki valyuta bozorida oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshiruvchi banklar va boshqa qonunchilikda nazarda tutilgan ishtirokchilar;

Ustama narx – mijozga xizmat ko'rsatish jarayonida amalga oshirilgan xarajatlar va mavjud xatarlarni inobatga olgan holda xizmat ko'rsatuvchining yo'qotishlari o'rnini qoplash maqsadida bitimning yakuniy narxiga kiritilishi mumkin bo'lgan marja yoki vositachilik haqi to'lovi.


I. PROFESSIONALIZM

Bank mehnat majburiyatlarini professional tarzda bajarishi uchun tegishli tayyorgarlikdan o'tgan va malakali xodimlarga ega bo'lishi kerak. Bank yuqori professional standartlarga intilishlari lozim.

Yuqori professional standartlar quyidagilar bilan ta'minlanadi:

1. Valyuta amaliyotlariga oid va ish faoliyatiga tegishli bo'lgan amaldagi qonun va qonunosti hujjatlarini yetarli darajada bilish va ularga rioya qilish;
2. Tegishli tajriba, texnik bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish va ularga tayangan holda faoliyat yuritish;
3. Bankning ichki tartib-qoidalariga amal qilishda, tuzilgan bitimlarni ijro etishda, hujjatlarni yuritish va axloqiy xatti-harakatlarga rioya qilishda professional mulohazani qo'llash;
4. Ichki valyuta bozoridagi operatsiyalar bilan bog'liq xatarlarni cheklash, monitoring qilish va nazorat qilish bo'yicha amaliyotga ega bo'lish.

Bank uning kasbiy nufuzi, halolligi yoki mustaqilligiga salbiy ta'sir



openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: 2-113
	Sana: "12" oktabr 2021 yil

ko'rsatadigan firibgarlik bilan bog'liq bo'lgan har qanday xatti-harakatlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

Bank o'z faoliyati davomida Kodeks talablariga rioya qilishi, bozorning barcha ishtirokchilari va mijozlar bilan vijdonan, adolatli tarzda, shaffoflikni ta'minlagan holda ish ko'rishlari zarur.

Shubhali amaliyotlar va xatti-harakatlardan qochish, ularga qarshi turgan holda birdamlik bilan harakat qilishi, kasbiy amaliyotini asossiz tanqid qilmasligi hamda bozorning barcha ishtirokchilariga nisbatan har qanday ko'rinishdagi kamsitish holatlariga, kasbiy nufuziga putur yetkazadigan xatti-harakatlarga yo'l qo'ymasliklari kerak.

Valyuta bozori yaxlitligini va unga bo'lgan ishonchni saqlab turish hamda valyuta bozorida ish yuritishni professional va yuqori standartlarda olib borish maqsadida Bank tomonidan valyuta operatsiyalariga doir ichki etika kodeksi talablariga rioya qilishlari lozim.

Bank amaldagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan holatlarni anglaganda ularda qatnashmasligi va yordam bermasligi lozim.

Bank tomonidan qonunchilik hujjatlaridagi o'zgarishlar to'g'risida xodimlarni muntazam ravishda xabardor qilish tizimi ishlab chiqilishi lozim.

Bunda, Bankning mas'ul tarkibiy tuzilmalari qonunchilikdagi o'zgarishlar bilan xodimlarni muntazam ravishda tanishtirib borishlari maqsadga muvofiq. Ichki yoki tashqi o'quv dasturlarda qatnashish professionalizmni oshirishning amaliy usuli hisoblanadi.

Bank valyuta bozoridagi savdo faoliyati bilan bog'liq xatarlarni cheklash, monitoring qilish va nazorat qilish uchun amaliyotga ega bo'lishi kerak. Valyuta operatsiyalari, jumladan, valyutaviy hosilaviy (derivativ) instrumentlari bo'yicha kunlik/oylik cheklovlar o'rnatilishi lozim.

Ichki valyuta bozorida faoliyat olib boruvchi mas'ul xodimlar risklarni aniqlash va boshqarish ichki tartib-qoidalari bilan ta'minlanishi va doimiy ravishda malaka oshirib borishlari lozim hamda valyuta bozoridagi faoliyati bilan bog'liq risklarni aniqlash va boshqarish yuzasidan hisobotlarni tegishli tarkibiy tuzilmalarga muntazam ravishda taqdim etib borishlari shart.

II. KONFIDENSIAL MA'LUMOTLAR

Ichki valyuta bozorining yaxlitligi, barqarorligi hamda adolatli munosabatlarni ta'minlash uchun ma'lumotlarning konfidentsialligini saqlash muhim ahamiyatga ega.

Bank o'z mijozlariga xizmat ko'rsatish jarayonida olgan konfidensial ma'lumotlarni saqlash va himoya qilish hamda xodimlar tomonidan konfidentsial ma'lumotlarni aniqlash va ulardan foydalanish yuzasidan ko'nikmalarni shakllantirish uchun javobgardir.

Bank mijozlarining konfidensial ma'lumotlarini to'g'ri himoya qilishlari va



sobiq, amaldagi yoki potensial mijozlarining yakunlangan yoki ehtimoliy valyuta savdolari to'g'risidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxsga oshkor qilmasliklari kerak.

Bank konfidensial ma'lumotlarni himoya qilish va ulardan foydalanish imkoniyatini cheklashlari talab qilinadi.

Mijozlarning buyurtmalari va ular bilan tuzilgan valyuta bitimlari to'g'risidagi konfidensial ma'lumotlar keng ommaga ochiq bo'lmagan quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

1. Xizmat ko'rsatish orqali mijoz to'g'risida olingan barcha ma'lumotlar;
2. Bankning buyurtmalari hamda bitimlari to'g'risidagi ma'lumotlar;
3. Banklararo valyuta savdolari to'g'risidagi ma'lumotlar;
4. Banklararo valyutaviy hosilaviy (derivativ) instrumentlar bo'yicha amalga oshirilgan bitimlar va boshqa operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar.

Bank konfidensial ma'lumotlarni faqat quyidagi holatlarda oshkor qilishlari mumkin:

1. Sobiq, amaldagi yoki potensial mijozning roziligi bilan;
2. Qonunchilik hujjatlariga muvofiq, shuningdek, tegishli nazorat qiluvchi yoki davlat organining rasmiy talabiga binoan;
3. Markaziy bankning talabiga asosan.

Bank konfidensial ma'lumotlarni oshkor qilishda qonunchilik hujjatlarida belgilangan cheklovlarni hisobga olishlari kerak.

Agar ma'lumot suiste'mol qilinishiga shubha bo'lsa, Bank konfidensial ma'lumotlarni ichki yoki tashqi uchinchi shaxslarga oshkor qilmasligi kerak.

Bank tomonidan konfidensial va boshqa turdagi ma'lumotlarning oshkor qilinmasligi to'g'risidagi qat'iyroq standartlar o'zaro shartnomalar orqali belgilanishi mumkin.

Mijozlarning valyuta operatsiyalari bo'yicha konfidensial ma'lumotlari faqat oldindan belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin.


Mas'ul xodimlar tomonidan shaxsiy manfaatlar uchun konfidensial materiallardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Bank konfidensial ma'lumotlardan (qasddan yoki beparvolik bilan) foydalanish orqali manfaat ko'rmasliklari yoki foyda olishga intilmasliklari, shuningdek, Bankning yoki boshqa mijozlarning manfaati uchun bunday ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Bank konfidensial ma'lumotlarga asoslangan savdodan voz kechishlari kerak, shu bilan birga, ularning mas'ul xodimlari har qanday holatda ham Bankdan tashqarida, hatto ish joylarini o'zgartirganlaridan keyin ham bunday ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Bank konfidensial ma'lumotlardan ichki valyuta bozoridagi operatsiyalarda va tashkilotning boshqa sohalarida o'rinli foydalanishni ta'minlash uchun qat'iy siyosat va nazoratga ega bo'lishi kerak.

Bank tomonidan konfidensial ma'lumotlarni himoya qilish tizimini samarali



tashkil etish maqsadida:

1. Har bir xodimning, egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar, u ishlayotgan har qanday ma'lumotlarga mas'uliyatli va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishini ta'minlash;
2. Konfidensial ma'lumotni muhofaza qilish muhimligi masalalarida xodimlarning kasbiy malaka darajasini muntazam oshirib borish;
3. Konfidensial ma'lumotlardan ruxsatsiz foydalanish imkoniyatini cheklash tizimida kamchiliklarni aniqlab borish va tizimni doimiy takomillashtirish bo'yicha zaruriy choralarni ko'rish;
4. Konfidensial ma'lumotlarni ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish uchun yetarli va zamonaviy texnik infratuzilmani yaratish;
5. Har qanday tahdidlarga yoki konfidensial ma'lumotlarning sizib chiqishini himoya qilish tizimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borish lozim.

III. MANFAATLAR TO'QNASHUVI

Manfaatlar to'qnashuvi – ichki valyuta bozori ishtirokchilarining xizmat majburiyatlarini obyektiv va xolisona bajarishiga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaatdorligi mavjud bo'lgan holatlarda yuzaga keladi.

Bank tomonidan mijozlar yoki boshqa bozor ishtirokchilari bilan adolatli munosabatlar o'rnatish maqsadida professional ish yuritishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash va to'liq bartaraf etilishi lozim. Agar manfaatlar to'qnashuvini to'liq bartaraf etish imkoniyati bo'lmasa, ularni asosli ravishda boshqarish zarur.

Valyuta oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirishga mas'ul bo'lgan xodimlar professional ish yuritishga to'sqinlik qiladigan manfaatlar to'qnashuvining yuzaga kelishi ehtimolini hisobga olishlari hamda Bankning manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha ichki tartibiga qat'iy rioya qilishlari lozim.

Manfaatlar to'qnashuvi yuz berishi mumkin bo'lgan holatlar:

1. Mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlar yoki mijoz nomidan amalga oshirilgan operatsiyalarda shaxsiy manfaatdorlikning mavjud bo'lishi;
2. Moliyaviy yoki boshqa turdagi rag'batlarga erishish maqsadida ma'lum bir mijoz manfaatidan boshqa bir mijoz yoki mijozlar guruhi manfaatini ustun qo'yish;
3. Mijozga ko'rsatilgan xizmatlar uchun mijozdan tashqari boshqa shaxsdan hadyalar, pul mablag'lari, tovar yoki xizmatlar ko'rinishida rag'batlar olish;
4. Valyuta operatsiyalarini amalga oshirishga mas'ul xodimlarning mijozlar va boshqa bozor ishtirokchilari bilan shaxsiy munosabatlari;
5. Shaxsiy doiradagi tijoriy faoliyat;
6. Konfidensial ma'lumotlardan bozor ishtirokchilarining manfaati yo'lida foydalanishi.

Bank manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan vaziyatlarni bartaraf etishlari



openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-119</u>
	Sana: "№ <u>22</u> " <u>oktabr</u> 20 <u>25</u> yil

yoki ularni boshqarish bo'yicha zaruriy chora-tadbirlarni joriy qilishlari lozim. Mazkur chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. Tuzilmada majburiyatlar va/yoki tuzilmaviy bo'ysunish darajasini chegaralash;
2. Ma'lumot almashinuvida ma'lum to'siqlarning joriy qilinishi;
3. Valyuta oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirishga mas'ul bo'lgan shaxsda manfaatlar to'qnashuvi vujudga kelsa, uning majburiyatlarini o'zgartirish;
4. Deklaratsiya siyosati, aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi hamda shaxsiy munosabatlar bo'yicha, shu jumladan, qabul qilingan hadyalar to'g'risida hisobotlar yuritish siyosatini tatbiq etish;
5. Shaxsiy tijorat faoliyati ustidan nazorat o'rnatish siyosati va mexanizmlarini joriy qilish;
6. Manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan bitimlarni rad etish;
7. Shubhali yoki manfaatlar to'qnashuvi holatlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan shaxslararo munosabatlarni qilmaslik;
8. Korrupsiyaga qarshi kurashish va har qanday darajadagi korrupsiya holatlari to'g'risida ma'lumot berish.

Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish prinsiplari:



1. Joriy va potensial manfaatlar to'qnashuvi holatlari to'g'risida bevosita Bank rahbarini o'z vaqtida, asosli va to'liq xabardor qilish majburiyati;
2. Nizolarni hal qilishda ishtirokchilar manfaatlari muvozanatiga, shuningdek xolislik va mustaqillikka rioya qilish;
3. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ichki valyuta bozori normativ-huquqiy hujjatlari talablariga rioya qilish.

Shuningdek, deklaratsiya siyosati xodimlarning sovg'alar yoki boshqa shunga o'xshash hadyalar berish (bermaslik) yoki qabul qilishda (qilmaslik) Bankning etika kodeksiga rioya qilishlarini ta'minlaydi. Tatbiq etilishi lozim bo'lgan deklaratsiya siyosati o'z ichiga qabul qilinishi mumkin bo'lgan hadyalarning qiymat chegarasi va turlarini qamrab olishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Deklaratsiya siyosati xodimlardan potensial va mavjud sotuvchilar, yetkazib beruvchilar va mijozlarga nisbatan eng yuqori axloqiy meyorlarni va xulq-atvorni namoyish etishni talab qiladi. Bu xodimlarga teng munosabatda bo'lish, xolis professionallik va kamsitmaslik amaliyotlarini qo'llashni ta'minlaydi.

Deklaratsiya siyosati quyidagilarga tegishli:

- mavjud hamda potensial barcha sotuvchilar va yetkazib beruvchilar;
- mavjud hamda potensial mijozlar;
- xodimlar va potensial xodimlar;
- Bankning mustaqil pudratchilari va agentlari;
- ular bilan aloqada bo'lgan har qanday shaxs yoki tashkilot



Ma'lum bir nizodan asosli ravishda xalos bo'lishning yoki uni boshqarishning imkoni bo'lmasa, Bank aloqador tomonlarni mavjud manfaatlar to'qnashuvi holati to'g'risida xabardor qilishlari lozim.

IV. BOZOR MANIPULYATSIYASI

Bank bozorning boshqa ishtirokchilarini chalg'itish va bozor faoliyatini barqaror ishlashiga to'sqinlik qilish maqsadida chalg'ituvchi narxlarda buyurtmalarni kiritmasligi yoki talab, taklif va savdolar hajmini sun'iy ravishda oshirmasligi kerak.

Bozor manipulyatsiyasi quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

1. Narxlarni sun'iy ravishda o'zgartirish va belgilash, shuningdek, xarid va sotuv hajmlarini oshirib ko'rsatish maqsadida bozor ishtirokchilarining oldindan kelishilgan harakatlari;

2. Valyutani xarid qilish (sotish) buyurtmalarini bitim imzolanishidan oldin bekor qilib yuborish niyatida taklif qilish ("spoofing", "flashing" yoki "layering");

3. Narxlarni va savdo hajmlarini sun'iy oshirish orqali bozordagi faollikni yaratish ("wash trades") maqsadida soxta bitimlar tuzish;

4. Narxlarni ko'tarish yoki tushirish maqsadida ishonchli bo'lmagan va yolg'on ma'lumotlarni tarqatish;

5. Bozor likvidligi, savdo hajmlari va narxlari to'g'risida noto'g'ri taassurot shakllantirish maqsadida boshqa turli usul va strategiyalardan foydalanish.

Spufig ("spoofing") - manipulyatsiya qilishni o'z oldiga maqsad qilgan bozor ishtirokchisi tomonidan valyutani xarid qilish va sotish bo'yicha ko'p sonli buyurtmalarni bitimlar tuzilishi va ularni qanoatlantirilishidan oldin bekor qilish holati. Ushbu harakatlarni amalga oshirishdan maqsad valyutaga bo'lgan talab va taklif to'g'risida ma'lumot to'plash, bozor ishtirokchilarining e'tiborini jalb qilish hamda ularda bozor holati yoki valyutaning narxi va uning harakati to'g'risida sun'iy ravishda taassurot yaratish bilan ifodalanadi.

Fleshing ("flashing") - haqiqiy bozor narxlari haqida noto'g'ri taassurot qoldirish uchun bitimlar imzolanishini ko'zda tutmagan holda savdoda buyurtmalar va ularning narxlarini qisqa vaqt davomida ushlab turish, so'ngra ularni bekor qilib yuborish.

Leyering ("layering") - bozor ishtirokchisi tomonidan valyutani xarid qilish va/yoki sotish bo'yicha turli xil kurslarda ko'plab buyurtmalarni ular qanoatlantirilishidan oldin bosqichma-bosqich bekor qilish niyatida joylashtirish holati.

Savdolarni yuvish ("wash trades") - bozor ishtirokchisi tomonidan o'zi kiritgan buyurtmani qanoatlantiruvchi qarama-qarshi buyurtma kiritish orqali bitim imzolanganligi to'g'risida savdo ishtirokchilarida taassurot qoldirishga urinish. Bunda, ushbu savdo ishtirokchisining aktivlarida hech qanday o'zgarish sodir bo'lmaydi.



openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-119</u>
	Sana: "№ <u>22</u> " <u>oktabr</u> 20 <u>25</u> yil

V. AXBOROT ALMASHISH VA KOMMUNIKATSIYA

Bozor ishtirokchilari o'rtasida ma'lumotlar shaffofligi ta'minlanishi, axborot almashinuvida professional yondashilishi hamda noto'g'ri ma'lumotlar tarqatilmashligi lozim.

Ma'lumotlar qabul qilib oluvchi tomonga tushunarli bo'lishi uchun oddiy bo'lishi hamda ishtirokchilar tegishli auditoriyaga mos terminologiyadan foydalanishi va ko'p ma'noli so'zlardan foydalanishni cheklashlari lozim.

Ma'lumotlar to'liqligi va aniqligini ta'minlash uchun ishtirokchilardan:

1. Yolg'on axborotni tarqatmasligi;
2. Narxlarning o'zgarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan tasdiqlanmagan ma'lumotlardan ogoh bo'lishi;
3. Tasdiqlanmagan ma'lumotlarni aniqlashtirib olishi hamda bozorga ta'sir qilish yoki boshqa ishtirokchilarni chalg'itish maqsadida turli xil yolg'on ma'lumotlarni tarqatmasliklari talab etiladi.

Bank axborot almashish jarayonidagi ma'lumotlarning o'zlari xizmat ko'rsatadigan tashkilotga va bozor holatiga ta'sir ko'rsatishini anglashlari lozim.

Kommunikatsiya jarayonida mijozlar to'g'risidagi shaxsiy ma'lumotlar yoki tijoriy faoliyati hamda mijozlarning savdo pozitsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish ta'qiqlanadi.

Bozor ishtirokchilari orasida ma'lumotlarni kuzatib borish, tekshirish va saqlash imkonini beruvchi kommunikatsiyaning tasdiqlangan metodlari orqali aloqa qilishlari, boshqa shaxslarning ushbu ma'lumotlardan foydalanish huquqini cheklashlari hamda axborot xavfsizligi standartlari ma'lumotlarni uzatish usulidan qat'iy nazar qo'llanilishi lozim.


Bankda tasdiqlangan axborot almashish usullarining ro'yxati bo'lishi hamda savdo faoliyati haqidagi ma'lumot almashishda mutasaddi bo'limlarining kommunikatsiyalari yozib borilishi kerak.

Bank ba'zi istisno holatlarda ma'lumotlar uzatishning yozib olinmaydigan kanallaridan foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqishlari mumkin (masalan, favqulodda holatlarda yoki faoliyatning uzluksizligini ta'minlash maqsadida).

Bunda, ruxsat etilgan har qanday yozib olinmaydigan kanallar yoki qurilmalar to'g'risida xodimlarga yo'l-yo'riq berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bankka nisbatan quyidagi talablar qo'llanilishi lozim:

1. O'z vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan tajriba, bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish;
2. Tajriba, bilim, malaka va ko'nikmalarni tegishli darajada takomillashtirib borish, o'z xodimlarini o'qitish, ularning malakasi va kasbiy mahoratini oshirish;
3. O'z vazifalarini sinchkovlik, aniqlik, asoslilik va mustaqillik bilan bajarish;
4. Barcha mavjud ishonchli ma'lumotlarga asoslanib, kasbiy faoliyat doirasida qarorlar qabul qilish;
5. Boshqa moliya institutlari, iste'molchilar va tartibga soluvchi organlar bilan



Openbook	Ro'yxat raqami: <u>I-118</u>
	Sana: "№ <u>22</u> " <u>oktbr</u> 20 <u>25</u> yil

munosabatlarda aniq va tushunarli tildan foydalanish;

6. Mijozlarga ularning manfaatlarini ko'zlab ko'rilgan harakatlar to'g'risida to'liq va o'z vaqtida ma'lumot berish.

VI. MIJOZLAR BILAN MUNOSABATLAR

Bank o'z mijozlari bilan munosabatlarda axloqiy meyor va professionallikka amal qilishlari hamda adolatli va obyektiv bo'lishlari shart.

Bankning valyuta savdolari jarayonida mijozlar bilan amalga oshirilgan operatsiyalari uchun o'rnatiladigan ustama narxlari adolatli va asosli bo'lishi kerak.

Bank tomonidan ustama narx belgilash jarayonida mijozlarga bitimning yakuniy narxiga ustama narx qo'shilishi, bir xil yoki o'xshash operatsiyalar uchun turli xil mijozlarga har xil miqdorda ustama olinishi mumkinligi tushuntirilishi lozim.

Shuningdek, mijozlarga ustama narxning qanday shakllanishi to'g'risida, xususan, ustama narx shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar (shu jumladan, tranzaksiya bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar va operatsion xarajatlar) haqida ma'lumot berilishi kerak.

Bank tomonidan olinayotgan ustama narx mijozlar ish faoliyatining miqyosi, kredit xatarlari va o'zaro munosabatlarning bir xil darajada bo'lishiga qaramasdan mijozning narx shakllanishi to'g'risida yetarli tajribaga ega emasligidan foydalanib, boshqa mijozlardan olinayotgan ustama narxdan yuqori bo'lmashligi zarur.

Mijozlar bilan bo'lgan munosobatlarda shaffoflikni ta'minlash maqsadida Bank rasmiy veb-sahifasi hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'limlarida kunlik valyuta operatsiyalari bo'yicha ustama narx bo'yicha ma'lumot berib borishlari kerak. Bunda, ustama narx valyuta kursida aks ettirilgan bo'lsa, ustama narx hisobga olingan valyuta kursi haqida ma'lumot berib borilishi kerak.

Chet el valyutasini sotish va sotib olish bo'yicha ikkitadan ortiq kurslar mavjud bo'lsa, Bank tomonida maksimal va minimal kurslar to'g'risida ma'lumot berib borilishi mumkin.

VII. HISOB-KITOBLAR, BAHSLI VAZIYATLARNI HAL QILISH, JINOIY DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISH VA TERRORIZMNI MOLIYALASHTIRISHGA QARSHI CHORALAR

Bank ichki valyuta bozorida bitimlar bo'yicha o'z vaqtida va uzluksiz hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini beradigan ishonchli, samarali va shaffof tizimni joriy qilishlari kerak.

Bankning hisob-kitoblarni amalga oshirishda uchinchi tomon to'lovlarini jalb qilishlari operatsion xatarlarning sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Shu bilan birga, Bank hisob-kitoblar uchun uchinchi tomon to'lovlaridan foydalanish mobaynida noqonuniy daromadlarni legallashtirish yoki firibgarlik holatlarini ham hisobga olishlari lozim. Shu munosabat bilan, valyuta oldi-sotdi operatsiyalarida to'g'ridan-to'g'ri to'lovlarlardan foydalanish tavsiya etiladi.



openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>5-119</u>
	Sana: "№ <u>44</u> " <u>04-01</u> 20 <u>25</u> yil

Bank uchinchi tomon to'lovlaridan foydalanish munosabatlariga nisbatan aniq dastur ishlab chiqishlari lozim va to'lovlarning o'tkazilishida mazkur dasturga qat'iy rioya qilinishi shart.

Bunday dastur, kamida, uchinchi tomon to'lovidan foydalanishni talab etadigan vaziyatlar haqida aniq tushunchalarni, shu bilan birga, noqonuniy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi qonun hujjatlarga amal qilmaslik riskini baholashlarni o'z ichiga olishi lozim.

Uchinchi tomon to'lovlarini amalga oshirish mexanizmlari bitimlarni amalga oshirishning boshlanishiga qadar kontragentlar tomonidan kelishib olinishi va hujjatlar asosida rasmiylashtirilishi kerak. Agar uchinchi tomon to'lovidan foydalanish to'g'risidagi talab bitim amalga oshgandan keyin kelib tushsa, xuddi shu tarzda batafsil tahlil qilinishi hamda tegishli Komplayens va ichki nazorat boshqarmasiga murojaat qilishlari va tegishli ruxsatni olishlari kerak.

Bahsli vaziyatlar yuzaga kelganda tomonlarning rahbariyati tomonidan muammo zudlik bilan, adolatli ravishda va o'zaro hurmatni saqlagan holda hal qilinishi zarur.

Valyuta oldi-sotdi operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblardagi tafovutlar zudlik bilan aniqlanishi va bartaraf etilishi lozim. Bank tafovutlar yuzaga kelganda ichki nazoratni olib borishlari va tomonlarni bu haqida xabardor qilishlari kerak.

Kontragentlar o'rtasida kelishmovchiliklar uchragan hollarda muammoni imkon qadar tezroq hal qilish uchun barcha zarur choralarini ko'rish kerak.



Kelishmovchilik bitim summasi, valyutasi, sana(lar)i (yoki tomonlarning birida ochiq pozitsiya) sababli yuzaga kelgan bo'lsa, tomonlardan biri vaziyatni tartibga solish uchun o'z vaqtida choralar ko'rish zarur (ikkinchi tomonning roziligi bilan bo'lishi maqsadga muvofiq). Ushbu harakatlar kelishmovchilik natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy yo'qotishlarni oldini olishga yordam beradi.

Kelishmovchiliklar pul o'tkazmalarini amalga oshirayotgan paytda yuzaga kelsa, unda ushbu jarayonda ishtirok etayotgan barcha tomonlar muammoni hal qilish uchun barcha say-harakatlarni amalga oshirishlari zarur.

Bankda jinoiy daromadlarni legallashtirish yoki terrorizmni moliyalashtirish zanjirining bo'g'iniga aylanmaslik uchun o'z tartibi va nazorat qilish vositalari bo'lishi kerak. Bank, shuningdek, yuqoridagi operatsiyalar amalga oshirilayotgani haqida xabar topgan yoki shubhalangan mas'ul xodimning rahbariyatga va tegishli davlat organiga zudlik bilan xabar berishini ta'minlashlari zarur.

Barcha bo'g'in xodimlariga bunday faoliyatning qonunga zid ekanligi hamda ushbu faoliyatga oid operatsiya o'tayotganligi yoki shubhali harakat sezilsa, jinoyatchi bo'lishi mumkinligi tasdiqlanmagan holatda ham, darhol xabar berish kasbiy burchlari ekanligi to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish kerak.

Xodimlarni jinoyat belgilarini aniqlay bilish va asosli shubhali xolatlarni ifodalay bilishga o'rgatish zarur. Shuningdek, xodimlar yuqoridagi holatlar yuzaga kelganda kimga murojaat qilishlarini bilishlari kerak.



Bank O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni talablariga qat'iy rioya qilishlari shart.

VIII. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

Bank tomonidan mazkur Kodeks qabul qilinishida ilovada keltirilgan shakldagi rasmiy axborot bilan birga mazkur Kodeks ham barcha uchun ochiq ma'lumot sifatida Bankning veb-saytida e'lon qilinishi lozim.

Ushbu Kodeksning alohida bandlari O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi zid bo'lsa, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu bandlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari normalariga amal qilinadi.

openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-119</u>
	Sana: "№ <u>22</u> " <u>oktabr</u> 20 <u>25</u> yil

**ICHKI VALYUTA BOZORIDA ETIKA KODEKSI
TALABLARIGA RIOYA QILISH BO‘YICHA
BILDIRISHNOMA**

“Open bank” aksiyadorlik jamiyati Ichki valyuta bozori etika kodeksi (keyingi o‘rinlarda “Kodeks”) mazmuni bilan tanishib chiqqanligi hamda o‘z faoliyati davomida Kodeks talablariga rioya qilinishini bildiradi.

Shuningdek, “Open bank” aksiyadorlik jamiyati faoliyatining miqyosi va murakkabligidan kelib chiqib, o‘z faoliyatini Kodeks talablariga moslash uchun kerakli choralar ko‘rganligini ma’lum qiladi.

“Open bank” AJ
“ ” 2025-yil

openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I 118</u>
	Sana: "№ <u>44</u> " <u>oktabr</u> 20 <u>24</u> yil

YURIDIK XULOSA
(ichki qoidani huquqiy ekspertizadan o'tkazish to'g'risida)

Toshkent shahar

“07” 10 2025 yil

Ekspertiza o'tkazuvchi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning (keyingi o'rinlarda “Bank” deb yuritiladi) Yuridik boshqarmasi.

Ekspertizadan o'tkazilgan me'yoriy hujjat nomi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatining ichki valyuta bozorida etika kodeksi (keyingi o'rinlarda “ichki qoida” deb yuritiladi).

Ekspertiza o'tkazishda foydalanilgan qonunchilik va me'yoriy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunlari, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida nizomi va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari, hamda “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning ustavi va boshqa ichki me'yoriy hujjatlar (keyingi o'rinlarda “qonunchilik va me'yoriy hujjatlar”).

Mazkur ichki qoida qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Bankning xulq-atvori, uning barqaror faoliyat ko'rsatishiga asos bo'lib, barcha manfaatdor tomonlarning qonuniy huquq va manfaatlarini hisobga olgan holda halol va xolis faoliyat yuritishlari uchun shakllangan umumaxloq normalarini belgilaydi.

Ushbu ichki qoida ishlab chiqishda qonunchilik texnikasi qoidalariga rioya qilingan.

Mazkur ichki qoida, agar unda boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan kuchga kiradi.

Ushbu ichki qoidaga o'zgartirish va qo'shimchalar Bankning Kuzatuv kengashining qarori asosida kiritiladi.

Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarida ishlab chiqilishi belgilangan ichki qoidalar, shuningdek ularga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar tijorat banklari tomonidan tasdiqlangandan so'ng 15 (o'n besh) kun ichida Markaziy bankka taqdim etilishi kerak.

“Open bank” aksiyadorlik jamiyatning
Yuridik boshqarmasi boshlig'i
S.I. Salimov